

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik mexanizmini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashtirish sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charhiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strategiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeiini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO'K: 94(439+94):327

VENGRIYA VA TURKIY DUNYO: TARIXIY BOG'LANISH VA ALOQALARI

HUNGARY AND THE TURKISH WORLD: HISTORICAL CONNECTIONS AND RELATIONS

ВЕНГРИЯ И ТУРЕЦКИЙ МИР: ИСТОРИЧЕСКИЕ СВЯЗИ И ОТНОШЕНИЯ

Muzaffarov Muhammadaminxon Xusanxon o'g'li Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Gumanitar fanlar kafedrası assistenti

Annotatsiya

Milodiy V asrda hozirgi Osiyo hududlaridan kelgan hunlar Atilla boshchiligida Yevropa tomon yo'l olishadi. Ular Konstantinopol shahrini egallab, Vizantiya imperatorlarini katta miqdorda o'lpon to'lashga majbur qilishadi. Keyinchalik Atilla Galliya (hozirgi Fransiya)da G'arbiy Rim imperiyasi qo'shinlari bilan to'qnash keladi. Oradan ko'p o'tmay hunlar Italiyaga ham kirib borishadi. Atilla Rim papasi bilan uchrashgach, Rimga yurishni to'xtatadi. Hunlar armiyasi Italiyadan qaytishda Markaziy Yevropada to'xtab, shu erda doimiy yashash uchun joylashadi. Lotin tilidagi "Hungaria" (ingliz tilida "Hungary") nomi aynan hun xalqining nomidan kelib chiqqan bo'lib, bugungi Vengriya davlatining nomiga asos bo'lgan. Vengriya ilmiy va siyosiy qatlamlari asrlar davomida o'z turkiy ildizlarini eslab yashagan, turkiy xalqlar bilan aloqalarni saqlashga intilgan. Biroq geografik masofa bu aloqalarni rivojlantirishni murakkablashtirgan. Shuningdek, Sharqdan kelib chiqqan hunlar bir vaqtlar Rimga tahdid solganligi sababli, ularning avlodlari Yevropada begonalik bilan qarshi olingan.

Abstract

In the 5th century AD, the Huns originating from present-day Central Asia, led by Attila, advanced into Europe. They captured Constantinople and compelled the Byzantine emperors to pay substantial tribute. Subsequently, Attila confronted the Western Roman Empire's forces in Gaul (modern-day France), and soon after, the Huns entered Italy. Following a meeting with the Pope, Attila halted his campaign toward Rome. On their return from Italy, the Hunnic army settled in Central Europe, establishing permanent residence. The Latin term "Hungaria" (known as "Hungary" in English) is derived from the name of the Huns and forms the basis of the modern Hungarian state's name. For centuries, Hungary's scholarly and political circles have preserved the memory of their Turkic roots and sought to maintain ties with Turkic peoples. However, geographic distance has complicated these connections. Additionally, due to the Huns' historical threat to Rome and their Eastern origins, their descendants were often met with estrangement in Europe.

Аннотация

В V веке н.э. гунны, происходящие с территории современной Центральной Азии, под предводительством Атиллы направились в Европу. Они захватили Константинополь и вынудили византийских императоров выплачивать крупную дань. Впоследствии Атилла столкнулся с войсками Западной Римской империи в Галлии (современная Франция), а вскоре гунны вторглись в Италию. После встречи с римским папой Атилла прекратил поход на Рим. Возвращаясь из Италии, армия гуннов остановилась в Центральной Европе и обосновалась там на постоянное проживание. Латинское название "Hungaria" (в английском — "Hungary") происходит от этнонима гуннов и легло в основу современного названия государства Венгрия. На протяжении веков венгерские научные и политические круги сохраняли память о своих тюркских корнях и стремились поддерживать связи с тюркскими народами. Однако географическая удалённость затрудняла развитие этих отношений. Кроме того, из-за исторической угрозы, которую гунны представляли для Рима, их потомки воспринимались в Европе как чужаки.

Kalit so'zlar: Mojariston, Turkiy xalqlar, Hunlar, Urug' nomlari, Onogur, Sharqiy Yevropa migratsiyasi, Lingvistik o'xshashlik, Fin-ugor tillari, Etnogenez, Xazar xoqonligi, Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT), Budapesht sammiti.

Key words: Mojaristan, Turkic peoples, Huns, Tribal names, Onogur, Eastern European migration, Linguistic parallels, Finno-Ugric languages, Ethnogenesis, Khazar Khaganate, Organization of Turkic States (OTS), Budapest Summit.

Ключевые слова: Мађарстан, Тюркские народы, Гунны, Названия племен, Оноугры, Миграция в Восточную Европу, Лингвистические параллели, Финно-угорские языки, Этногенез, Хазарский каганат, Организация тюркских государств (ОТГ), Будапештский саммит.

KIRISH

Sharqiy Yevropaning Karpatori mintaqasida joylashgan Vengriya davlati, Yevropa tillarida Hungary, Vengriya deb, Sharq tillarida esa ko'proq Mojoriston nomi bilan tanilgan bo'lib, uzoq tarixiy davrlardan beri turkiy xalqlar uchun begona bo'lmagan hudud sanaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ajdodlarimiz Sharqiy Yevropa kengliklarida o'zlarining ko'plab siyosiy tuzilmalarini barpo etgan davrlarda aynan Mojoriston zaminlari ular uchun muhim geosiyosiy makon, hatto beshik vazifasini bajargan. Shu bilan birga, ushbu hududning tub aholisi vengerlar bilan turkiy xalqlar o'rtasidagi etnik va madaniy yaqinlik masalasi ilmiy doiralar bilan bir qatorda xalq orasida ham keng muhokama qilinib kelinadi.

E'tiborga molik jihatlardan biri shuki, xalq orasida Hungary nomi ko'pincha qadimiy xunlar bilan bog'lanadi. XX asr boshlarida esa turkistonlik ziyolilar va matbuot vakillari bu mamlakatni "Mojoriston" deb atagan. Bugungi kunda ham ayrim mahalliy nashrlarda "Mojoriston" yoki "mojorlar yurti" kabi iboralarga uchrash mumkin. Bundan tashqari, o'zbek xalqining "to'qson ikki bo'li urug'i" shajarasida "mojor" nomli urug'ning mavjudligi Vengriya xalqi bilan bog'liq tarixiy va etnogenetik tushunchalarni yanada chuqurlashtirishga asos bo'ladi.

Taxminan bir yarim ming yildan ikki ming yil avval, Sharqiy Yevropaning go'zal tabiiy manzaralari — Karpat tog'lari etaklari hamda Dunay daryosi bo'ylaridagi serhosil yaylovlar Ichki Osiyodan kelgan ko'chmanchi elatlar uchun muhim makon bo'lgan. Bu hududlarga dastlab sak-skif va xunlar, keyinchalik esa ilk o'rta asrlarda bulg'or, avar, savir, ogur (o'g'ur), to'qurg'ur (to'qqiz o'g'uz), o'no'g'ur (o'n o'g'ur), o'turg'ur (o'ttiz o'g'ur), mo'jor, shekel, qabar kabi elatlar joylashgan. O'rta asrlar davomida esa kun, kuman, qipchoq, pecheneg (bijanak), uz kabi ko'plab Ichki Osiyolik ko'chmanchi guruhlar bu hududda o'z siyosiy tuzilmalarini shakllantirgan[1].

Mazkur elatlarning aksariyati turkiy tilli bo'lgani tarixiy manbalarda keng tasdiqlangan. Diqqatga sazovor jihat shundaki, bugungi Vengriya (Mojoriston) hududida hamon Kun, Nagy Kun ("Ulug' Kun"), Kishi Kun ("Kichik Kun"), Shekel, Besenyo ("Pecheneg") kabi nomlar tuman va qishloqlar nomida saqlanib qolgan. Jumladan, Shekel yoki Shekeliya nomli yirik tuman ko'plab tadqiqotchilar tomonidan qadimiy turk urug'i — chigil yoki izgil bilan bog'lanadi.

Vengriyaning ushbu mintaqasida yashovchi mahalliy aholi bu nomni o'zlarining qadimiy etnik belgilari sifatida qabul qilgan bo'lib, ularning shevasida turkiy leksik birliklarning mavjudligi tilshunoslar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Bu holat, o'z navbatida, Sharqiy Yevropa va turkiy dunyo o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning chuqur ildizlariga ishora qiladi[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Vengriya va turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni yoritishda bir qator muhim manbalar asos qilib olingan. Peter B. Goldenning asari turkiy xalqlarning Yevropaga ko'chishi va siyosiy shakllanishini tahlil qiladi. András Róna-Tas esa venger tilining fin-ugor ildizlari bilan bir qatorda turkiy ta'sirlarini lingvistik jihatdan ko'rsatadi.

Arminius Vamberi XIX asrda Turkistonga safar qilib, vengerlarning Sharqdagi ildizlarini izlagan. Turkiy Davlatlar Tashkilotining Budapesht sammiti haqidagi hujjat Vengriyaning zamonaviy turkiy hamkorlikka intilishini aks ettiradi. "Oyina" nashrida chop etilgan maqola Atilla va Almushxon obrazlari orqali vengerlarning turkiy ildizlariga bo'lgan qiziqishni yoritadi.

IIAU tomonidan e'lon qilingan materialda turkiy davlatlar o'rtasidagi madaniy aloqalar tahlil qilinadi. Vikipediya sahifasi esa turkiy xalqlar haqida umumiy kontekstni beradi. Ushbu manbalar tadqiqotning nazariy asosini mustahkamlab, mavzuni ko'p qirrali yondashuvda ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada Vengriya va turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy aloqalar bir nechta ilmiy metodlar asosida tahlil qilingan. Tarixiy-kontekstual yondashuv orqali hunlar, onogurlar va boshqa turkiy elatlarning Yevropaga ko'chish jarayoni qadimiy manbalar asosida yoritilgan. Lingvistik-komparativ tahlil yordamida venger tilidagi turkiy so'zlar va etnonimlar solishtirilib, til aloqalari ko'rsatib berilgan. Etnografik yondashuvda urug' nomlari, musiqiy meros va og'zaki esdaliklar asosida etnik o'xshashliklar izlangan. Siyosiy-huquqiy hujjatlar tahlili orqali Vengriyaning Turkiy Davlatlar Tashkilotidagi ishtiroki va Budapesht sammiti natijalari baholangan. Shuningdek, manba tahlili orqali turli darajadagi ilmiy va ommaviy manbalarning ishonchiligi va mavzuga aloqadorligi tekshirilgan. Bu metodlar maqolaning ilmiy asosini mustahkamlab, mavzuni ko'p qirrali yondashuvda ochib bergan.

XVIII–XIX asrlarda Yevropada yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik va milliy o'zlik izlanishlari fonida Avstriya–Vengriya imperiyasining asosiy etnik guruhlaridan biri bo'lgan vengerlar, ayniqsa ularning ziyoli qatlamlari, o'zlarining etnik ildizlarini aniqlash va qardosh elatlar bilan aloqalarni

TARIX

tiklashga intila boshlaydilar. Bu izlanishlar, ayniqsa, vengerlar yashaydigan Karpat mintaqasida til jihatdan mutlaqo begona bo'lgan slavyan, rumin va german xalqlari bilan o'ralganlik holati bilan izohlanadi. Hind-yevropa tillar oilasiga mansub bo'lgan bu xalqlarning tillari venger tiliga mutlaqo o'xshamas edi, bu esa vengerlar orasida lingvistik yolg'izlanish hissini kuchaytirgan.

Mazkur holat vengerlar orasida "bizning tilimiz nega qo'shnilar tiliga o'xshamaydi?", "bizning qardosh elatlarimiz qayerda?" kabi savollarni yuzaga keltirgan. Bu savollar asrlar davomida xalq xotirasida saqlanib kelgan bo'lib, XIX asrda Armini Vamberi kabi tadqiqotchilar tomonidan amaliy izlanishlarga sabab bo'lgan. Vamberi 1860-yillarda Usmonli hududlaridan yo'lga chiqib, Turkistonning turli mintaqalarini kezib chiqqan va vengerlarning Sharqdagi etnik ildizlarini aniqlashga harakat qilgan.

Vengerlarning Sharqqa bo'lgan qiziqishi aslida undan ming yil avval ham mavjud bo'lgan. Masalan, 1235–1238-yillarda venger ruhoniysi Yulian Volga–Urol mintaqasiga safar qilib, bu erda o'z qardoshlarini topganini tilga olgan. U o'z xotiralarida mahalliy aholi bilan til jihatdan to'liq tushunishganini qayd etgan: "ularning tili mutlaqo vengercha: ular – uni va u – ularni tushunardi"[3].

Venger xalqining Sharqdan kelib chiqqanligi haqidagi afsonaviy rivoyatlar, shuningdek, yunon va lotin tillaridagi qo'lyozmalarda uchraydigan ishoralar, bu etnik aloqalarning tarixiy asosga ega ekanini ko'rsatadi. O'rta asrlarda vengerlar orasida turkiy xalqlar bilan qarindoshlik g'oyasi keng tarqalgan bo'lib, bu ko'plab ilmiy izlanishlarga turtki bergan.

Biroq XIX–XX asrlarga kelib lingvistik tadqiqotlar venger tilining turkiy tillarga emas, balki fin-ugor tillar oilasiga mansub ekanini aniqlaydi. Tilshunoslik mezonlari — morfologik tuzilma, sanash tizimi, qarindoshlik atamaları, kelishiklar va olmoshlar — venger tilining fin, saam, mordvin va udmurt tillari bilan yaqin qarindoshlikda ekanini ochiq-oydin ko'rsatadi.

Venger xalqining turkiy elatlar bilan etnik va madaniy aloqalari masalasi, venger tilining fin-ugor tillar oilasiga mansubligi ilmiy jihatdan aniqlanganiga qaramay, hanuzgacha ilmiy va jamoatchilik muhokamalarida dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Boshqa fin-ugor xalqlaridan farqli o'laroq, vengerlarning milliy davlatchilik tarixining ildizlari Yevropa Xun imperiyasi (370–469) va 896-yilda asos solingan Mojar qirolligi davriga borib taqaladi. Venger tarixiy ongida muhim o'rin tutgan shaxslar — xun imperatori Atilla (430–453) va ilk qirollik asoschisi Almushxon (IX asr) — ko'plab manbalarda turkiy kelib chiqishga ega shaxslar sifatida tilga olinadi[5].

Bundan tashqari, venger tilida yuzlab turkiy kelib chiqishga ega leksik birliklar mavjudligi, "venger" va "mojar" etnonimlarining turkiy ildizlarga ega ekani, shuningdek, venger qabila-urug'lari nomlarining turkiy elatlar bilan o'xshashligi bu masalaga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirgan. Hatto IX–X asrlarga oid yunon manbalarida bugungi Vengriya hududi "G'arbiy Turkiya" deb nomlanganligi ham bu tarixiy bog'liqlikni tasdiqlovchi dalillardan biri sifatida ko'riladi.

Uzoq yillik tadqiqotlar natijasida venger tarixchilari, tilshunoslari va etnologlari quyidagi xulosaga kelishgan: vengerlarning etnogenezi faqat fin-ugor komponenti bilan cheklanmaydi, balki unda turkiy elatlar ham faol ishtirok etgan. Ilk o'rta asrlarda Sharqiy Yevropaga onogur, hungar (ungar), magyar (mojar) nomlari ostida kirib kelgan bu elatlar dastlab turkiy xususiyatlarga ega bo'lgan, keyinchalik esa fin-ugor guruhlar bilan aralashib, zamonaviy venger xalqining shakllanishiga zamin yaratgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda ilmiy doiralarda vengerlar qadimda Ural tog'lari atrofida, xususan hozirgi Boshqirdiston hududida yashagan, fin-ugor tillarida so'zlashgan elat sifatida qaraladi. VII–VIII asrlarda ular Qora dengiz shimolidagi Xazar xoqonligi (630–969) hududida yashagan, IX asr oxirlariga kelib esa hozirgi Vengriya hududiga ko'chib, bu erda ilgari yashab kelgan xun, avar, savir, o'g'ur kabi turkiy elatlar bilan aralashgan.

Mazkur qarashlarga qarshi fikr bildiruvchilar mavjud bo'lishiga qaramay, venger tilida ayniqsa ilk o'rta asrlarga oid bo'lgan ko'plab qadimiy turkiy so'zlarning mavjudligi, xususan "alma" (olma), "arpa", "buza" (bug'doy) kabi dehqonchilik va bog'dorchilikka oid terminlarning saqlanib qolganligi, bu tilning tarixiy ildizlarini Ichki Osiyo bilan bog'lashga asos bo'ladi.

Venger olimlari uchun alohida qiziqish uyg'otgan jihatlardan biri — boshqirdlar bilan vengerlar o'rtasidagi etnik va madaniy o'xshashliklaridir. Tilshunoslar "boshqird" (başqırd, başgar) va "mojar" (magyar) etnonimlari o'rtasida fonetik yaqinlikni qayd etgan bo'lsalar, etnologlar boshqirdlarning "kesa", "eneu", "yurmati" kabi asosiy urug' nomlarini vengerlarning "Keszi", "Yenö", "Gyurmat" urug'lari bilan bog'lashadi. Shuningdek, har ikki xalqning musiqiy merosida ham o'zaro

uyg'unlik mavjudligi ta'kidlanadi. Venger xalq og'zaki an'alarida esa ajdodlarining Volga–Ural bo'yidan ko'chib kelganligi haqidagi esdaliklar saqlanib qolgan.

Boshqird–mojor o'xshashliklari ilk o'rta asrlarda Volga–Ural mintaqasida yuz bergan siyosiy va etnomadaniy aralashuvlar natijasi sifatida izohlanadi. Bu jarayonlar esa undan ham ilgariroq — Shimoliy Xitoydagi Ordos mintaqasida, Xuanxe daryosi yuqori oqimida joylashgan hududlarda boshlangan. Xitoy yilnomalarida bu erda yashagan turkiy va turk-mo'g'ul elatlar — uxuan (o'g'ur), xua (avar), syanbi (savir), bulo (bulg'or), ida (eftalit) qatorida “mujung” nomli elat ham tilga olinadi. Ko'plab tarixchi va etnologlar bu atamani “mojor” etnonimi bilan bog'laydilar. Xitoy manbalarida xorijiy elat nomlarini iyerogliflar orqali ifodalashdagi fonetik cheklovlar sababli, bu nomlar turlicha shakllarda yozilgan bo'lishi mumkinligi ham e'tiborga olinadi[7].

Milodiy birinchi asrlarda Xitoyning shimolidagi Ordos mintaqasida yashagan turkiy elatlar IV–V asrlarda xunlar boshchiligidagi turli omillar ta'sirida g'arbga ko'chib, dastlab Oltoy tog'lari, so'ngra Volga–Ural bo'ylari orqali Sharqiy Yevropaga etib kelgan. Bu ko'chmanchi guruhlar orasida Vengriya (Mojoriston) hududida turg'unlashgan elatlar alohida o'rin tutadi. Vizantiya manbalarida bu hudud “Turkiya” yoki “G'arbiy Turkiya” deb nomlangan bo'lib, bu atama keyinchalik Kichik Osiyoga ko'chgan[5].

Sharqiy Yevropaga kelgan turkiy elatlarning bir qismi — bulg'orlar — Bolqon yarim oroliga siljib, bugungi Bolgariya davlatining asosini tashkil etgan. Bu migratsiya jarayoni faqat Bolgariya bilan cheklanmay, balki serb, xorvat, bosniyaliklar kabi slavyan xalqlar orasiga singib ketgan turkiy guruhlar ularning etnonimlarida ham iz qoldirgan. Ayrim etnologik tadqiqotlarda “serb” atamasi savir elatidan, “xorvat” esa Qubratxon nomidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Shuningdek, “Bosniya” nomining pecheneg (vengercha: besenyo) elati bilan bog'liqligi haqida ham fikrlar mavjud.

Venger xalq nomining kelib chiqishi ham ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. XX asr boshlarida “Hungary” atamasi xunlar bilan bog'langan bo'lsa, hozirgi davrda bu nomning ogur (o'g'ur) turklarining O'n-o'g'ur (On-ogur) birlashmasi bilan aloqadorligi ko'proq e'tirof etilmoqda. Yunon va lotin manbalarida “o'nta o'g'ur urug'i birlashmasi”ga oid ma'lumotlar uchraydi. Bu guruhlar bel-ogur (besh o'g'ur), qutrigur/to'qurgur (to'qqiz o'g'ur), onogur (o'n o'g'ur) kabi ichki bo'linmalarga ega bo'lgan.

Keyinchalik Ichki Osiyoda siyosiy etakchilik qilgan turkiy elatlarning bir qismi oguz (o'g'uz) nomi bilan tanilgan. Eski turk bitiktoshlari, arab va fors manbalarida ularning sakiz o'g'uz (sakkiz o'g'uz), to'quz o'g'uz (to'qqiz o'g'uz), o'tuz o'g'uz (o'ttiz o'g'uz) kabi tarmoqlari qayd etilgan. “O'g'ur” (keyinchalik “o'g'uz”) atamasi “urug'lar birlashmasi” ma'nosini anglatib, prototurkcha “og” (nasl) so'zidan kelib chiqqan. O'rxun bitiktoshlaridagi “og'ush” (oila) va “og'ul” (bola) so'zlari ham shu ildizga borib taqaladi. Shunday qilib, “on-ogur” (o'n o'g'ur) atamasi “o'nta urug' birlashmasi” degan ma'noni anglatadi. Bu nom slavyan tillarida fonetik o'zgarishga uchrab “venger”, “hongur”, “hungar” shaklida saqlanib qolgan.

Turkiy tillarning o'g'ur tarmog'iga mansub elatlar IV–V asrlarda Sharqiy Yevropaga ko'chishdan avval Ural, G'arbiy Sibir, Qozog'iston dashtlari, Jung'oriya pasttekisligi va Oltoy tog'larining g'arbiy etaklarida yashagan. Bu hududlarda yashagan elatlar Xitoy yilnomalarida syunnu (xun), yuyeban, gaoche (“yuksak aravalilar”), tele (tegrek – “arava”), xua (avar), ida (eftalit), syanbi (savir), mujung (mojor) kabi etnonimlar bilan tilga olingan. Ularning aksariyati til jihatdan o'xshash bo'lgan elatlar sifatida tasvirlangan.

Sharqiy Yevropaga ko'chish jarayonini xunlar boshlab bergan bo'lib, keyinchalik boshqa turkiy guruhlar ularning izidan borgan. G'arbiy tilshunoslar Yevropa xunlarining tilini “turkiy va mo'g'ul tillari orasidagi, turkiyga yaqin oltoy tillaridan biri” deb baholagan. Bu elatlarga tegishli ayrim leksik birliklar venger tilida saqlanib qolgan.

IX–X asrlarda Arpad sulolasi tomonidan tashkil etilgan venger qirolligi Hétmagyar (“yetti mojor”) urug'ining birlashuvi asosida shakllanib, Sharqiy Yevropaning kuchli siyosiy tuzilmalaridan biriga aylangan. 896-yilda tashkil topgan bu davlatga keyinchalik Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylaridan ko'chib kelgan qabar turklari qo'shilgan. Natijada, Hétmagyar uyushmasi “O'n-o'g'ur” (o'n urug' birlashmasi) shaklida kengayib, vizantiya manbalarida “Onnoguria” nomi bilan qayd etilgan[7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi Vengriya Respublikasi o'zini ko'p millatli va madaniy jihatdan rang-barang davlat sifatida namoyon etadi. Taxminan 10 millionlik aholining asosiy qismini vengerlar tashkil etgan bo'lsa-da, mamlakatda slavyan kelib chiqishiga ega bo'lgan guruhlar ham sezilarli miqdorda mavjud. Lingvistik jihatdan olib qargalganda, zamonaviy venger tilining lug'aviy tarkibida slavyan tillaridan

TARIX

olingan so'zlar 20–30 foizgacha bo'lgan ulushni tashkil etadi, bu esa tarixiy va madaniy aloqalarning chuqur ildizlariga ishora qiladi.

Globalashuv jarayonlari va Yevropa integratsiyasi fonida venger jamiyatining katta qismi o'zini Yevropa sivilizatsiyasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'radi. Shu bilan birga, milliy o'zlikni saqlashga intiluvchi qatlam, ayniqsa ziyolilar va siyosiy elita, o'z tarixiy ildizlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu yondashuv Vengriya tashqi siyosatida turkiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali amaliy ifodasini topmoqda[6].

Vengriya 2018-yildan boshlab Turkiy Davlatlar Tashkilotida kuzatuvchi maqomida ishtirok etib kelmoqda. 2025-yilning 20–21 may kunlari Budapesht shahrida mazkur tashkilotning ilk norasmiy sammiti bo'lib o'tdi. Sammit yakunida 71 banddan iborat deklaratsiya qabul qilindi. Garchi sammit norasmiy maqomda o'tkazilgan bo'lsa-da, u turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim bosqich sifatida baholandi.

Mazkur sammit Vengriya tomonidan turkiy davlatlar bilan strategik hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan siyosiy irodani namoyon etdi. Bu holat venger jamiyatida tarixiy xotira va etnik o'zlikni saqlashga bo'lgan ehtiyojning zamonaviy geosiyosiy kontekstdagi ifodasi sifatida qaralishi mumkin.[4]

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Golden, Peter B. *An Introduction to the History of the Turkic Peoples*. Wiesbaden: Otto Harrassowitz, 1992.
2. Róna-Tas, András. *Hungarians and Europe in the Early Middle Ages*. Budapest: Central European University Press, 1999.
3. Vambery, Arminius. *Travels in Central Asia*. London: John Murray, 1865.
4. *Budapesht norasmiy sammiti deklaratsiyasi*. TDT rasmiy hujjat arxivi, 2025. <https://www.turkicstates.org/uz>.
5. Boboyoyov G'. "Afsonaviy xun imperatori Atilla, birinchi mojar qiroli Almushxon – "G'arbdagi turklar o'lkasi" va venger xalqining paydo bo'lishi tarixi". Oyina, 2022. <https://oyina.uz/uz/article/1290>.
6. IIAU. *Turkiy tilli davlatlarning falsafasi, madaniyati, aloqalari: tarix, bugun va kelajak*. <https://ii.au.uz/uz/news/1774>, 2022.
7. Vikipediya. *Turkiy xalqlar*. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_xalqlar, olinma sana: 23-oktabr, 2025.